Andumannobova Zahroxon Sharibjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

SLENG TARQALISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA INTERNETNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining slengning paydo bo‘lishi hamda ommalashuvidagi o‘rni tahlil qilinadi. Internet slenglari, ayniqsa qisqartma shakllar (LOL, ASAP, FYI va boshqalar), axborotni tez va qulay yetkazish ehtiyoji natijasida yuzaga kelgani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, gazeta, jurnal, televideniye va radio orqali tarqalgan sleng birliklarning jamiyat nutqiga kirib borishi misollar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar

sleng, internet slengi, kiber sleng, qisqartmalar, ijtimoiy tarmoqlar, OAV, televideniye, radio, gazeta, jurnal, kommunikatsiya, global village, trend, yozishma, antroponim, xaraktonim, mashhur shaxslar, populyarlik, nutq, kommunikativ strategiya, zamonaviylik.

Annotation

The article analyzes the role of social networks and mass media in the emergence and spread of slang. It highlights that internet slang, particularly abbreviations such as LOL, ASAP, and FYI, has developed due to the need for fast and efficient communication. The study also examines slang expressions popularized through newspapers, television, and radio, demonstrating their impact on everyday language.

Keywords

slang, internet slang, cyber slang, abbreviations, social networks, mass media, television, radio, newspapers, magazines, communication, global village, trend, messaging, anthroponyms, character names, famous figures, popularity, discourse, communicative strategy, modernity.

Аннотация

В статье анализируется роль социальных сетей и средств массовой информации в возникновении и распространении сленга. Особое внимание уделяется интернет-сленгу, в частности сокращённым формам (LOL, ASAP, FYI и др.), которые появились в результате необходимости быстрого и удобного передачи информации. Также на примерах рассматривается проникновение сленговых единиц, распространившихся через газеты, журналы, телевидение и радио, в речь общества.

Ключевые слова

сленг, интернет-сленг, кибersленг, сокращения, социальные сети, СМИ, телевидение, радио, газета, журнал, коммуникация, глобальная деревня, тренд, переписка,

антропоним, характероним, известные личности, популярность, речь, коммуникативная стратегия, современность.

Bugungi rivojlangan internet va media makon diskursini slengsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki, zamonaviy jamiyatda internet orqali ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan muloqot jarayonida hamda media matnlar orasida turli maqsadlarda rang-barang sleng birliklaridan foydalanish oddiy holga aylandi. Ingliz tilidagi slenglarning paydo bo‘lishi, ommalashishi va tarqalishida aynan ularning roli beqiyosdir. Aynan ular sababli sleng hozirgi maqomiga erishdi. Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolada slengning evolyutsiyasida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining tutgan o‘rni atroflicha tahlil qilinadi.

XXI asrning ilm-fan, texnologiya va axborot asri ekanligi hech kimga sir emas. Raqamli texnologiyalar, jumladan, internetning jadal suratlar bilan o‘sishi jamiyatning har bir sohasiga shu qadar chuqur kirib bormoqdaki, hayotimizni usiz tasavvur qilish imkonsiz ko‘rinmoqda. Bu ayniqsa, axborot almashinish sohasida o‘zini yaqqol namoyon etmoqda. Natijada, butun sayyoramiz shubhasiz kichik bir “Global Qishloqqa (Global Village)” [1;14] aylanib qolmoqda. Chunki, bugungi kunga kelib biror axborotni yashirish ilojsiz ishdek tuyulmoqda.

Kiber makonda sodir bo‘layotgan bunday o‘zgarishlar nafaqat tashqi dunyoda, balki ijtimoiy tarmoqlarda ham slengning paydo bo‘lishi, rivojlanib, jamiyat hayotiga kirib borishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, axborotni tez va qiziqarli tarzda uzatishga bo‘lgan intilish sababidan ijtimoiy tarmoqlarda kundun-kunga yangidan-yangi sleng birliklari paydo bo‘lmoqda. Ular “Internet slenglari” yoki “Kiber slenglar” [2] deb atalib, bu soha bugungi kundagi eng ko‘p o‘rganilayotgan qiziqarli tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi. Internet slenglari odatda insonlarning ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalari, ularning tarmoqqa joylashtiradigan tvitlari, turli chatlarga qo‘yiladigan reklama, e’lonlar yoki onlayn va oflayn tarzda o‘ynaluvchi katta auditoriyaga ega bo‘lgan turli o‘yinlarni o‘ynash paytidagi yozishmalar hamda yana boshqa ko‘plab omillar sabab paydo bo‘ladi.

Tahlil jarayonida turli ijtimoiy tarmoqlar (twitter, whatsapp, telegram, odnoklassniki, viber) orqali internet slenglarini to‘plab chiqdik. E’tiborlisi shundaki, internet slenglarining juda katta qismi qisqartmalardan tashkil topishi aniqlandi. To‘plangan slenglar ichidan eng ko‘p ishlatiladigan birliklarni ajratib oldik va quyida ularning ro‘yhatini keltirib o‘tamiz *(1.1 va 1.2-jadvallarga qarang):*

1.1-jadval.

Eng ko‘p qo‘llaniladigan tvitter slenglari [3]

LOL – laughing out loud; ASAP – as soon as possible; FYI – for your information; G2G – got to go;	BBBG – bye bye be good; RUOK – are you OK; CYT – see you tomorrow; TMB – tweet me back; E123 – easy as one, two, three; JIC – just in case;

FB – facebook; MSG – message; IMO / IMHO – in my opinion; ZZZ – sleeping, bored, tired;	4AO – for adults only; WUZUP – what's up?;

1.2-jadval.

Xabar yozishda ko‘p qo‘llaniladigan qisqartma slenglar [4]

?4U – I have a question for you U – you; 4 – for; 2 – to; 121 – one to one; 14AA41 – one for all, all for one	2MOR – tomorrow; 2NTE – tonight; 1CE – once; 10X – thanks; 1DR – I wonder; 2EZ – too easy.

Ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan internet slenglarining barchasi xalqaro hisoblanib, butun ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlarning ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilari tomonidan qo‘llaniladi. Bunday qisqartmalardan foydalanishning asosiy sabab va omillari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tamiz:

- foydalanuvchilar qisqartmalarni ishlatish orqali vaqtni tejaydilar;

- foydalanuvchilar uzun so‘zlarni qisqartirish orqali kamroq urinish va energiya sarf etadilar;

- turli ko‘rinishdagi qisqartmalar o‘ylab topish orqali yozishma qatnashchilari, ayniqsa, qarama-qarshi jins vakillari (erkak va ayol) bir-birlarining e'tiborini jalb qilishga urinadilar;

- qisqartmalar orqali yozishma ishtirokchilari bir-birlarini zeriktirmaslik hamda o‘zlarining zamonaviy ekanliklarini ko‘rsatishga harakat qiladilar.

Sleng paydo bo‘lishi va tarqalishiga xizmat qiluvchi vositalarning asosiylaridan yana biri – bu turli ommaviy axborot vositalaridir. Gazeta va jurnallardagi turli maqola, e'lon, karikatura, hajviya va yangiliklar, radio va televedeniyelar orqali efirga uzatiladigan ko‘plab ko‘ngilochar dasturlar, tele-shoular, debatlar, film va seriallar, radio eshittirishlar hamda hajviy ko‘rsatuvlar

asosida juda ko‘plab sleng birliklari dunyoga keladi. Ushbu vositalar jamiyat hayotining eng muhim va ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, istaymizmi yo‘qmi kundalik hayotimizda har kuni ularga duch kelamiz.

Sleng lug‘atlari ustida o‘tkazilgan tahlillar gazeta va jurnallar orqali jamiyat hayotiga kirib kelgan slenglarning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu slenglar rang-barang bo‘lib, jamiyat hayotining, deyarli, barcha sohalarini qamrab oladi. Jumladan, *Adam 2; to ad-lib; adzine; aerial; AFO; African; guff-guff; air sucker; Alice 2; alley; A-man; A-pie; in the biz bag; bizotic; blader; blankety-blank; to blaze; bleacher bum; brown sugar; bucket* kabi slenglar aynan gazeta va jurnallar orqali kirib kelgan.

Bundan tashqari, televedeniye va radio orqali efirga uzatiladigan film va seriallar ta’sirida ham juda ko‘p miqdordagi sleng birliklarining hosil bo‘lganini ta’kidlash lozim. Ularning o‘ziga xos jihati sifatida ushbu slenglarning ko‘pchiligi antroponim va xaraktonimlardan iborat ekanligini qayd etish lozim. Masalan, *Gollum; Rambo; Shmendrick; the Sweeney; Tinkerbelle; gomer; Holmes; kojak; Otis; Sherlock; Fred Nerk; Andy Gump; Jim Crow; Tom Mix; Tommy Trinder* kabi slenglar shular jumlasidandir. Bu kabi misollarni slengda minglab uchratish mumkinligini alohida qayd etish lozim. Bu esa OAVlarning sleng dunyoga kelishi, uning xalq orasida trendga aylanishi va insonlar nutqidan muqim o‘rin egallashi uchun nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishi borasida xulosa chiqarish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chaloupsky L. A sotsiolinguistic interpretation of military slang and vernacular expressions. // diss.// Brno: 2005, p.14.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Internet_slang, (Murojaat sanasi: 17.02.2026, 12:02).
3. https://preply.com/en/blog/2020/05/07/the-most-used-internet-abbreviations-for-texting-and-tweeting, (Murojaat sanasi: 17.02.2026, 22:10).
4. https://www.innocentenglish.com/news/texting-abbreviations-collection-texting-slang.html, (Murojaat sanasi: 17.02.2026, 22:28).